



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 02 | pp. 24-33 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

HUDUDLARNING BARQAROR RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA MULKIY SOLIQLAR MA'MURIYATCHILIGINING ROLI.



Aliyarov Olim Abdug'aparovich

Termiz davlat universiteti

Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

olimaliarov547@gmail.com

ORCID: 0009-0004-3784-4335

Annotatsiya. Hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlashda mulkiy soliqlar ma'muriyatchiligi muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada mulkiy soliqlarning hududiy rivojlanishga ta'siri tahlil qilinadi va soliq xavfsizligi tushunchasi yoritiladi. Shuningdek, soliq ma'muriyatchiligidan samaradorligini oshirish uchun taklif etilayotgan uslubiy va institutsional yondashuvlar, byudjet-soliq xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari hamda mulkiy soliqqa tortish modellarining iqtisodiy nazariyalari keltirilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, hududlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishi va mahalliy byudjetlarning daromadlarini oshirishda samarali soliq boshqaruvi va strategik ma'muriy yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: mulkiy soliqlar, soliq ma'muriyatchiligi, barqaror rivojlanish, iqtisodiy xavfsizlik, byudjet-soliq xavfsizligi, soliq xavfsizligi, hududiy rivojlanish, soliq tizimi, soliq daromadlari, soliq boshqaruvi.

Kirish. Mulkiy soliqlar ma'muriyatchiligi nazariya va amaliyotda adolatli ravishda soliq qonunchiligiga muvofiq majburiyatlarni bajarish yuzasidan sub'yektlar o'rtasida vujudga keladigan va rivojlanadigan soliq munosabatlarini boshqarish tizimi sifatida qaraladi. Soliq ma'muriyatchiligi soliq munosabatlarini boshqarishning tarkibiy qismi bo'lib, asosan soliq organlari tizimi tomonidan tashkiliy jihatdan taqdim etilgan davlat vakolatli (ixtisoslashtirilgan) ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Mazmunan u soliq siyosatini, shuningdek, soliq huquqi normalarini amalga oshirish bo'yicha faoliyatni, soliq tizimi faoliyatini tashkiliy, uslubiy va prosessual jihatdan ta'minlashni ifodalaydi. Soliq organlari faoliyatida izchillik bilan amalga oshiradigan soliq siyosatida iqtisodiyotning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash va mamlakatning mutanosib rivojlanish salohiyatini kengaytirish maqsadi belgilangan [1].

Yuqorida aytilganlarni hisobga olgan holda, soliq ma'muriyatchiligidan nafaqat soliq munosabatlarini boshqarishdagi, balki iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashdagi ahamiyati yaqqol ko'zga tashlanadi.

Adabiyotlar tahlili. Ushbu tadqiqotda mulkiy soliqlarning hududlarning barqaror rivojlanishiga ta'siri bo'yicha mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar, iqtisodiy nazariyalar hamda amaliy tadqiqotlar o'rganildi. Adabiyotlarda mulkiy soliqlarning hududlarning

iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy va salbiy ta'sirlari bo'yicha turli yondashuvlar mavjud:

R. Bird va D. Slack rivojlanayotgan mamlakatlarda mahalliy soliqlar, xususan, mulkiy soliqlarning samaradorligini oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Olimlar mahalliy moliyaviy resurslarni mustahkamlash va soliqqa tortish tizimini adolatli shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi [6].

W. Fischel mulkiy soliqlarning aholi migratsiyasi va hududiy rivojlanishga ta'siri haqida tadqiqot olib borgan. Olim o'zining "Uy egalari nazariyasi" ("Homevoter Hypothesis") modeli orqali mulk egalari mahalliy hukumat qarorlariga ta'sir o'tkazishi va soliqlar hududiy siyosatga bog'liq ravishda shakllanishi kerakligini ta'kidlaydi [7].

Musgrave va Tanzi davlat soliqlari va iqtisodiy xavfsizlik masalalarini chuqur tahlil qilgan. Musgrave (1959) mulkiy soliqlarning hududiy iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy adolat uchun muhimligini ta'kidlagan. Olimga ko'ra, mahalliy soliqlarning samarali boshqaruvi iqtisodiy barqarorlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi [9; 10].

U.T.To'lakov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda mulkiy soliqlar bo'yicha imtiyozlar va stavkalar belgilash tizimini takomillashtirish masalalari o'rganilgan. Olimning xulosalariga ko'ra, "Mulkiy soliqlar bo'yicha imtiyozlarni berish tartibini qayta ko'rib chiqish va ularni yanada maqsadli yo'naltirish zarur". Shuningdek olim tomonidan raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq ma'muriyatchiligi va uning iqtisodiy barqarorlikka ta'sirlari o'rganilgan [14; 15; 16; 17].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda ushbu metodologik yondashuvlar orqali hududiy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda mulkiy soliqlar ma'muriyatchiligining roli chuqur tahlil qilindi. Tadqiqotda nazariy tahlil, statistik ko'rsatkichlar, iqtisodiy modellash va ekspert baholash usullari uyg'unlashtirildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, mulkiy soliqlarning samarali boshqaruvi hududlarning barqaror rivojlanishi va ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. Dunyoning barcha mamlakatlarida, jumladan, O'zbekistonda ham beqaror muvozanat va tizimli iqtisodiy inqirozlar iqtisodiy o'sish va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, ya'ni davlat va uning hududlarining barqaror va xavfsiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini saqlab qolish vazifalarini transformatsiya qilish bilan bog'liq davlat siyosatining yangi vektorining rivojlanishiga olib kelmoqda.

Barqaror rivojlanish va iqtisodiy xavfsizlik kategoriyalari kompleksligi va dinamikligi bilan xarakterlanadi, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishning yangi omillari, fan-texnika taraqqiyoti, byudjet-soliq siyosati yo'nalishlarining aniqlashtirilishi munosabati bilan zamonaviy sharoitlarda bu kategoriyalarning mazmuni tadqiqotchilar tomonidan doimiy ravishda aniqlashtirib borilmoqda. Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan iqtisodiy o'sish, iqtisodiy rivojlanish, iqtisodiy sikl nazariyalari rivojining tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'plab mualliflar iqtisodiy o'sishni barqaror rivojlanish bilan bog'laydilar [19].

Zamonaviy mualliflar barqaror rivojlanishni turli jihatlardan ko'rib chiqadilar:

iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan o'z-o'zini tashkil etuvchi tizim sifatida;

iqtisodiy mexanizmga ega bo'lgan global tizim sifatida va boshqa ko'rinishlarda.

"Barqaror rivojlanish – bu jahon fuqarolik jamiyatini shakllantirish, ijtimoiy tengsizlikni va biosferaga ekologik yukni kamaytirish, global ekologik, iqtisodiy va

ijtimoiy tahdidlarning oldini olish, global iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun yangi resurslarni tejaydigan va ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqishning uzluksiz jarayonidir" [19].

Keltirilgan ta'rifda barqaror rivojlanishning nafaqat iqtisodiy o'sish bilan, balki uning xavfsizligini ta'minlash zarurati bilan ham bog'liqligi ko'rsatilgan. Xavfsizlik har qanday tizimning eng muhim xususiyati ekanligi e'tirof etilgan. Tizim xavfsizligini belgilovchi asosiy xususiyat "tizimning mavjud bo'lishining ichki va tashqi shart-sharoitlari muvozanati bo'lib, bu tizimning joriy va kelajakdagi rivojlanish manfaatlarini amalga oshirish imkonini beradi. Ko'pchilik olimlar bunda xavfsizlikning mohiyatini ko'radilar" [19].

Bunday qarashni tasdiqlash uchun byudjet va soliq tizimlarining mutanosibligi to'g'risidagi ma'lum qoidalarni keltirish mumkin, ular quyidagilardan iborat:

byudjet tizimiga to'lanadigan soliqlar byudjetning daromad qismini - "soliq daromadlari"ni shakllantiradi;

byudjet daromadlari hokimiyat organlarining davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha xarajat majburiyatlarini qoplashi kerak.

Mahalliy byudjetlarning mulkiy soliqlari hisobiga shakllanadigan daromadlari byudjet tizimining barqarorligi va hududlarda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlagan holda davlat xizmatlarini ko'rsatishning to'liqligini ta'minlaydi.

Byudjetga soliq tushumlari to'liq tushmagan taqdirda, hududning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, ya'ni uning iqtisodiy, aniqrog'i, soliq xavfsizligiga tahdid yuzaga keladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, tadqiqotchilarning ko'plab ishlarida ko'rib chiqilgan rivojlanish barqarorligi va xavfsizlikning o'zaro aloqadorligi muammolari davlat siyosati va iqtisodiy xavfsizlik strategiyasi bilan bog'liq. Iqtisodiyotning barqarorligi uning elementlari, tizim ichidagi aloqalarning ishonchiligi, ichki va tashqi yuklarni ko'tara olish qobiliyatini aks ettiradi. Bundan tashqari, rivojlanish barqarorligi tashqi va ichki omillar (tahdid) ta'siri sharoitida omon qolish qobiliyatini anglatadi. Iqtisodiy tizimning barqarorligi qanchalik yuqori bo'lsa, uning xavfsizligi shunchalik yuqori baholanadi [20].

Iqtisodiy xavfsizlik o'ziga xos tizim sifatida tahdid va xatarlarga qarshi kurashish vositalarining rivojlanishi bilan tavsiflanadi, davlatga, hududlarga (mahalliy daraja) va turli tashkiliy-huquqiy faoliyat va mulkchilik shakliga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'yektlarga nisbatan darajali iyerarxiyada ko'rib chiqiladi.

Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy tamoyillaridan (1-fuqarolarning huquq va iqtisodiy erkinliklariga rioya qilish va ularni himoya qilish, 2-qonuniylik, 3-iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash choralarining tizimliliigi va kompleksliliigi) kelib chiqib, tizim javob berishi kerak bo'lgan mezonlar guruhini ajratish mumkin. Bunday mezonlar quyidagilardan iborat:

iqtisodiyotning ehtimoliy tahdidlar mavjudligidan qat'i nazar (ishlab chiqarishning pasayishi, iqtisodiyot tuzilmasining deformatsiyasi, xomashyo yo'nalishi, energiya resurslarining taqchilligi, ishlab chiqarishning moddiy-texnika bazasining eskirishi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun motivatsiyaning yo'qligi va boshqalar) kengaytirilgan takror ishlab chiqarish rejimida faoliyat ko'rsatish qobiliyati;

aholi turmush darajasining pasayishi, ishsizlikning o'sishi, demografik soha

inqirozi, jinoyatchilikning o'sishi va boshqa tahdidlarga qarshi kurashish mexanizmini yaratishda aholining munosib turmush darajasi va uni saqlab qolish imkoniyati;

yashirin iqtisodiyotning o'sishi, investisiyalar yetishmasligi, pul-kredit tizimi inqirozi, inflyasiya darajasining o'sishi, iqtisodiyotning real sektori tashkilotlari faoliyati samaradorligining pasayishi, byudjet taqchilligining o'sishi, moliya bozorlarining cheklanganligi va rivojlanmaganligi, tashqi qarz darajasining o'sishi va neftning jahon narxlariga bog'liqligi tahdidlariga qarshi kurashish orqali ta'minlanadigan moliya tizimining barqarorligi;

tashqi savdo balansining nomutanosibligi, kapitalning chet elga chiqib ketishi, iqtisodiyotning importga qaramligi, eksportda xomashyo tovarlarining ustunligi, tashqi iqtisodiy munosabatlarda xorijiy sheriklar tomonidan kamsitish, iqtisodiy rivojlanish siyosatini shakllantirishning qonunchilik bazasi va mexanizmlari mukammal emasligi, korrupsiyaning tarqalishi va biznes yuritishning korrupsiyaviy sxemalari tahdidlariga qarshi tura oladigan tashqi iqtisodiy sohaning oqilona tuzilmasi;

texnologik va innovasion rivojlanishni jadallashtirish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, iqtisodiy tizimlarning rivojlanishi texnologik qoloqlik tahdidlaridan himoyalanganligini, texnologik yangiliklarning yetarli emasligini, innovasion tizimning raqobatbardoshligini pasayishini va innovasion jarayonlarni faollashtirishni, iqtisodiyotning texnika va ilg'or texnologiyalar importiga bog'liqligini, innovasion rivojlanish dasturlarining moliyalashtirish manbalari va investisiyalar bilan ta'minlanmasligini, tadqiqot va ishlanmalarning ustuvor segmentlarining investitsiyaviy jozibadorligini pasaytirishni, raqamli iqtisodiyot sohasida zarur va yetarli darajada yuqori texnologiyali biznesni rivojlantirish shart-sharoitlarining mavjud emasligi hisobiga global bozorda raqobatbardoshlikning pasayishi xavflaridan himoyani ta'minlaydi. Deyarli har bir xo'jalik yurituvchi sub'yekt mulkiy soliqlar to'lovchisi ekanligini, mulkiy soliqlardan olinadigan soliq tushumlari esa mahalliy byudjetlar daromadlarining asosiy ulushini tashkil etishini inobatga olib aytish mumkinki, mulkiy soliqlar sohasida barqaror va xavfsiz rivojlanish modellarini ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi.

Hududning barqaror rivojlanishiga mulkiy soliqqa tortishning ta'siri modelining mantiqiy sxemasi 1-rasmda keltirilgan.

Taqdim etilgan modelning institutsional elementlariga quyidagilar kiradi:

iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanishning o'zaro aloqadorligi bo'yicha fundamental va zamonaviy nazariyalar;


barqaror rivojlanishni uslubiy va tashkiliy ta'minlash;

iqtisodiy xavfsizlik va uning tipologik ko'rinishi - byudjet-soliq xavfsizligi hamda mustaqil kichik turi - soliq xavfsizligi;

iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash tamoyillari;

byudjet-soliq xavfsizligini uslubiy va tashkiliy ta'minlash;

soliq xavfsizligini ta'minlash vositalari.



1-rasm. Hududlarning barqaror rivojlanishiga mulkiy soliqqa tortishning ta'siri modeli¹

Sanab o'tilgan elementlarning har biri institutsional iqtisodiyotning tashkiliy-huquqiy asosini ifodalovchi "rasmiy va norasmiy qoidalar" to'plamini qo'llashni nazarda tutadi.

Barqaror va xavfsiz rivojlanish modelining ishlashini ta'minlash quyidagi turlarga ega:

uslubiy ta'minot, uning asosida tanlangan (yoki qurilgan) modelning mantiqiy sxemasi, uni tashkil etish tamoyillari, tizimning barqaror va xavfsiz rivojlanishini boshqarish usullari va vositalari tizimi shakllantirilishi mumkin;

iqtisodiy xavfsizlik yo'nalishiga (yoki tipologik turiga), muayyan hudud yoki aniq xo'jalik yurituvchi sub'yekt - soliq to'lovchi iqtisodiyotining holatini baholashning tanlangan usullariga qarab tasnifiy bo'linishi mumkin bo'lgan indikatorlar yig'indisidan iborat bo'lgan diagnostik ta'minot;

muayyan hudud yoki muayyan xo'jalik yurituvchi sub'yektning barqaror va

¹ Muallif tomonidan tuzilgan

xavfsiz rivojlanishiga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillar guruhini, ular o'rtasidagi o'zaro aloqalarni, mexanizmlarni tahlil qilishni o'z ichiga olgan tahliliy ta'minot;

barqaror iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va indikatorlarini prognoz qilish, tahlil qilish va baholash vositalari asosida shakllantirilgan mumkin bo'lgan proseduralar, usullar, algoritmlar, modellarni qamrab oluvchi nazorat-natijaviy ta'minot va boshqalar.

Iqtisodiyotning turli sohalar va tarmoqlarini ko'plab tahdidlardan himoya qilish mexanizmlarining keng diapazoni iqtisodiy xavfsizlikning tipologik turlarini aniqlashtirishga imkon beradi, undan iqtisodiy xavfsizlikning mustaqil turi sifatida byudjet-soliq xavfsizligini ajratib ko'rsatadi. Bunday qarashni tasdiqlash uchun byudjet va soliq tizimlarining mutanosibligi to'g'risidagi ma'lum qoidalarni keltirish mumkin, ular quyidagilardan iborat:

byudjet tizimiga to'lanadigan soliqlar byudjetning daromad qismini – "soliq daromadlari"ni shakllantiradi;

byudjet daromadlari hokimiyat organlarining davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha xarajat majburiyatlarini qoplashi kerak.

Mahalliy byudjetlarning mulkiy soliqlari hisobidan shakllanadigan daromadlari byudjet tizimi va hududlar ijtimoiy barqarorligini ta'minlab, davlat xizmatlarini to'liq ko'rsatish imkoniyatini beradi.

Soliq daromadlari byudjetga tushmay qolgan taqdirda hududning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, ya'ni byudjet soliq xavfsizligiga va uning mustaqil tipologik kichik turi sifatida soliq xavfsizligiga tahdid yuzaga keladi.

Soliq xavfsizligi kategoriya sifatida va iqtisodiy xavfsizlikning tipologik turi sifatida tadqiqotchilar tomonidan keng muhokama qilinadi, boshqaruvning darajali tizimiga to'liq mos keladigan ta'rif va tavsiflarni o'z ichiga oladi hamda tizimlarning rivojlanishi va barqarorligini ta'minlashning zaruriy sharti (omili) sifatida qaraladi. Shunday qilib, makrodarajada soliq xavfsizligi "davlat soliq siyosatini amalga oshirishni, milliy iqtisodiyot va davlat byudjetining mustaqilligini, tashqi va ichki tahdidlardan himoyalanganligini, barcha sohalar, tarmoqlar va iqtisodiy faoliyat turlarining barqaror iqtisodiy o'sishga chidamliligini ta'minlovchi shart-sharoitlar va omillar majmuasi" sifatida belgilanadi. Hududiy darajada esa «hududda soliq siyosatini amalga oshirishni, soliq daromadlarining o'z vaqtida va to'liq kelib tushishi hisobiga mahalliy byudjetni shakllantirishni, xavfsiz va barqaror rivojlanishni ta'minlovchi shart-sharoitlar va omillar majmuasi» deb ta'riflanadi. Xo'jalik yurituvchi sub'yekt (soliq to'lovchi) darajasida esa "xo'jalik yurituvchi sub'yektning barcha faoliyat sohalarida xavfsiz va barqaror rivojlanishini hamda soliq to'lovchi sifatidagi majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarish, byudjetga soliqlar va yig'implarni to'lash imkoniyatini ta'minlovchi shart-sharoitlar va omillar majmuasi" sifatida tushuniladi [21].

Soliq xavfsizligini, iqtisodiy xavfsizlikning boshqa har qanday tipologik turi singari, soliqqa tortishning muayyan sohasini boshqarishning ma'lum bir yo'nalishi bilan bog'lash mumkin. Bizning holatimizda bunday boshqarish ob'yekti bo'lib, biz ishning oldingi bo'limlarida mohiyati va mexanizmiga murojaat qilganimiz mulkiy soliqqa tortish hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda soliq xavfsizligiga nisbatan quyidagi xususiyatlar ajratib ko'rsatilgan:

birinchidan, soliq xavfsizligini nazariyada mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida, uning mazmuniga ta’sir ko‘rsatuvchi turli ilmiy sohalarining sinergetik o‘zaro bog‘liqligi tarzida, hamda klassik iqtisodiy va soliq nazariyalari, metodologik vositalar va ularni qo‘llash amaliyotining rivojlanish tendensiyalari bilan belgilangan alohida ilmiy yo‘nalish sifatida e’tirof etish;

ikkinchidan, soliq xavfsizligi amaliy faoliyat sohasi sifatida. Soliq xavfsizligini amalga oshirish milliy xavfsizlikning huquqiy maydoni doirasida, shuningdek davlat va uning hududlari faoliyatining iqtisodiy strategik yo‘nalishlarining asosiy yo‘nalishlari doirasida amalga oshiriladi. Soliq xavfsizligini ta’minlash uchun davlatning soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlari ishlab chiqiladi, soliq ma’muriyatchiligi tizimi, soliqlar tizimi, soliq organlari, soliq qonunchiligi takomillashtiriladi, bu, umuman olganda, soliq muhitining qulayligini va mikrodarajada soliq to‘lovchi xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarning barqaror rivojlanishi hamda davlat va uning hududlarini makrodarajada barqaror rivojlantirish imkoniyatini belgilaydi;

uchinchidan, soliq xavfsizligi kategoriya sifatida. U davlat faoliyatining soliq sohasini tartibga solish imkoniyatini ta’minlovchi “o‘zaro uzviy aloqadorlikka ega bo‘lgan ob’yektiv va sub’yektiv asoslar” bilan shartlanadi. Soliq xavfsizligining toifaviy belgilarini umumlashtirgan holda uni quyidagicha tavsiflash mumkin:

davlat, jamiyat va shaxsning barqaror va xavfsiz rivojlanishini ta’minlovchi soliq fanining turli yo‘nalishlari nazariyasi va metodologiyasini rivojlantirishni o‘z ichiga olgan ilmiy faoliyat sohasi;

davlat darajasida va soliq to‘lovchilar darajasida soliq xavfsizligiga tahdidlarga qarshi kurashish va soliq tavakkalchiliklarini bartaraf etish kuchlari, vositalari va usullari bilan amalga oshiriladigan soliq xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha amaliy faoliyat.

Tashqi va ichki omillar ta’sirida shakllanadigan soliq xavfsizligiga tahdidlar quyidagilardir: byudjetning soliq daromadlari bilan ta’minlanmaganligi, soliq bazasining jismoniy hajmi saqlanmaganligi, biznesga haddan tashqari soliq yuki va boshqalar.

Mulkiy soliqqa tortishning soliq xavfsizligi umumiy soliq xavfsizligi tizimining tarkibiy qismi (sohasi) sifatida qaraladi. Mulkiy soliqqa tortish sohasidagi soliq xavfsizligiga asosiy tahdid: yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, hamda yuridik va jismoniy shaxslarning olinadigan yer solig‘idan daromadlar bilan ta’minlanmasligi (yoki to‘liq ta’minlanmasligi) bo‘ladi. Soliq xavfsizligini hududiy va xo‘jalik yurituvchi sub’yekt – soliq to‘lovchi darajasiga nisbatan tadqiq etish tadqiqot usullarini ishlab chiqish, ko‘rsatkichlar tizimini, ularning chegaraviy qiymatlarini aniqlash va soliq xavfsizligi darajasini baholash algoritmini tuzishni taqozo etadi.


Turli darajadagi sub’yektlarning soliq xavfsizligini tadqiq etishning uslubiy vazifalarini tanlangan tadqiqot algoritmgiga xos ketma-ketlikda tuzish kerak, u quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

soliq xavfsizligiga tahdidlarni miqdor va sifat jihatidan baholash. Bunday baholash usullari tahdidlarning namoyon bo‘lish darajasini sifat jihatidan baholashni, soliq xavfsizligiga tahdidlarning turli ko‘rsatkichlarga (indikatorlarga) ta’sirini miqdoriy baholashni amalga oshirishga imkon beradigan klassik usullar bo‘lishi mumkin

hududlar va xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarni barqaror rivojlantirish, shuningdek maxsus usullar va modellar;

tashqi va ichki omillar hamda soliq xavfsizligiga tahdidlar ta'sirining shakllangan variantlari asosida hudud yoki sub'yektni yanada rivojlantirish ssenariysini ishlab chiqish.

Amaliy iqtisodiy tadqiqotlarda indikativ ko'rsatkichlarning chegaraviy qiymati ostida ularning shunday qiymati qabul qilinadiki, unga erishish yoki undan oshib ketish mazkur ko'rsatkichning tizim yoki sub'yektning normal faoliyat ko'rsatishi buzilishining katta, nomaqbul xavfi sohasiga o'tishi sifatida qaraladi. Bu iqtisodiy xavfsizlik darajasi ko'rsatkichini shartli deb hisoblash imkonini beradi, u indikativ ko'rsatkichlar tizimining ularning chegaraviy qiymatlariga erishish darajasini tavsiflaydi. Soliq xavfsizligi diagnostikasining bunday yondashuvi, bizning fikrimizcha, hudud darajasida va xo'jalik yurituvchi sub'yekt darajasida qo'llash uchun ancha sodda hisoblanadi. Ko'rsatib o'tilgan indikativ usuldan tashqari, soliq xavfsizligi darajasini aniqlashda turli xil prognoz modellari va usullardan, shu jumladan ekspert baholash usullari, iqtisodiy-statistik usullar va soliq ma'muriyatchiligi vositalari vazifasini bajaruvchi turli balans modellaridan foydalanish mumkin.



2-rasm. Mulkiy soliqlarni takomillashtirish jarayoniga ta'sir etuvchi omillarning Isikavi diagrammasi asosida tahlili²

² Muallif tomonidan tuzilgan

Mulkiy soliqqa tortish parametrlarining qiyosiy tahlilidan kelib chiqib, Kaoru Isikava diagrammasi tuzildi (2-rasm).

Xulosa va takliflar. Kelajakda mulkiy soliqqa tortishni takomillashtirishga erishish asosiy maqsad sifatida belgilangan. Qo'yilgan maqsadga erishish uchun ikki yo'nalishda ishlash maqsadga muvofiq: soliqqa tortish va soliq ma'muriyatchiligi. Mulkiy soliqqa tortishni takomillashtirish doirasida soliq solinadigan mol-mulkning umumiy tushunchasini ishlab chiqishga, mulkiy soliqlarning majburiy elementlarini bir xil ko'rinishga keltirishga, ko'char va ko'chmas mol-mulkni belgilashda cheklanganlikka, kadastr qiymatini to'g'ri belgilashga e'tibor qaratish lozim. Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish doirasida xalqaro hamkorlikni va soliq tizimini raqamlashtirishni kuchaytirish zarurati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 18.07.2017-yildagi Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida PF-5116-son.
2. Smith, A. (1776). *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. London: Methuen & Co.
3. Ricardo, D. (1817). *On the Principles of Political Economy and Taxation*. London: John Murray.
4. George, H. (1879). *Progress and Poverty: An Inquiry into the Cause of Industrial Depressions and of Increase of Want with Increase of Wealth: The Remedy*. New York: Appleton & Co.
5. Tiebout, C. M. (1956). A Pure Theory of Local Expenditures. *Journal of Political Economy*, 64(5), 416-424.
6. Bird, R. M., & Slack, E. (2004). *International Handbook of Urban Systems: Studies of Urbanization and Migration*. Edward Elgar Publishing.
7. Fischel, W. A. (2001). *The Homevoter Hypothesis: How Home Values Influence Local Government Taxation, School Finance, and Land-Use Policies*. Harvard University Press.
8. Bahl, R., & Linn, J. (1992). *Urban Public Finance in Developing Countries*. Oxford University Press.
9. Musgrave, R. A. (1959). *The Theory of Public Finance: A Study in Public Economy*. McGraw-Hill.
10. Tanzi, V., & Zee, H. H. (2000). *Tax Policy for Emerging Markets: Developing Countries*. International Monetary Fund (IMF).
11. Stiglitz, J. E. (2015). *The Price of Inequality: How Today's Divided Society Endangers Our Future*. W. W. Norton & Company.
12. To'lov, U.T., (2021). Mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlarni takomillashtirish. "Logistika va iqtisodiyot" ilmiy elektron jurnali, 1(2), 425-435.
13. To'lov, U.T., (2021). Mol-mulk solig'i stavkalarini belgilashning o'ziga xos xususiyatlari. "Logistika va iqtisodiyot" ilmiy elektron jurnali, 1(5), 286-297.
14. To'lov, U. (2025). Soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishda innovatsion yondashuvlar. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari., 5(1), 91-105.
15. To'lov, U.T. (2024). Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq ma'muriyatchiligini

raqamlashtirishning xorij tajribasi. Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari, 4(03), 3-12

16. To‘lakov, U.T. (2024). Samarali soliq ma‘muriyatchiligini ta‘minlashning nazariy va konseptual asoslari. “Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida soliq-byudjet siyosatini amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami, 32-34.

17. To‘lakov, U.T. (2023). Soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikka erishish usullari. “Soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to‘plami, 44-47.

18. Мишустина, М.В. Налоги и налоговое администрирование: учебник. – Москва: Просвещение, 2015. – 912 с.

19. Сенчагова, В.К. Инновационные преобразования как императив устойчивого развития и экономической безопасности России. – Москва: Анкил, 2013. – 688 с.

20. Степашина, С.В. Экономическая безопасность Российской Федерации: учебник для вузов. – Санкт-Петербург: Лань, 2001. – 608 с.

21. Ханафеева, Ф.Ф. Налоговое администрирование: учебник. – Йошкар-Ола: Стринг, 2013. – 418 с.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

